



## Tasvirga bo'lgan huquqlar daxlsiz-mi?

2-betda o'qing



## Toshkentdan uy olmoqchi edim...

3-betda o'qing

# INSON va qonun

2023-YIL  
11-IYUL  
SESHANBA  
№ 27 (1387)  
www.hudud24.uz

@adolat\_nashrlari

**"ADOLAT"** milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!

"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)



## YURIDIK KASB RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI MUHOKAMA QILINDI



**Toshkent davlat yuridik universitetida "Yuridik kasb rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari" mavzusida yuridik muhokamalar seriyasi tashkil etildi.**

Xalqaro anjumanda nufuzli xorijiy yuridik kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar va ta'lim muassasalari vakillari va ekspertlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri Akbar Toshqulov, Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b. Islambek Rustambekov, "White & Case LLP" (Vashington, DC) partnyori Kerolayn Lamm, Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga Konferensiyasi

Bosh kotibi Kristof Bernaskoni, Kardiff universiteti birinchi prorektori Urfan Xalik, Anqara Yildirim Boyazid universiteti rektori Ibrohim Aydinli va Kattolika universitetining xalqaro huquq bo'yicha professori Maria-Chiara Malaguti ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda dunyoda yurisprudensiya sohasining vazifalari o'zgarib bormoqda. Kun sayin yangidan-yangi sohalar, hal qilinishi va huquqiy tartibga solinishi kerak bo'lgan dolzarb masalalar vujudga kelmoqda. Shu bilan birga, yuridik soha vakillarining davlat va jamiyat hayotidagi o'rni hamda ahamiyati, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi vazifalari ham zamonaviylashib bormoqda.

Anjumanda mazkur omillarni iribatga olgan holda ushbu o'zgarishlarni o'rganish, yuridik soha rivojini xalqaro va milliy amaliyotdan kelib chiqib, malakali mutaxassislar bilan muhokama qilish ayni kunning muhim talablaridan biri ekani qayd etildi.

Bundan tashqari, yuridik muhokamalar seriyasida zamonaviy huquqshunoslik amaliyoti, yuridik kasb rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, sohadagi xalqaro standartlar, shuningdek, bugungi va kelajakdagi mehnat bozori uchun zamonaviy yuridik kadrlar tayyorlash va boshqa sohaga doir muhim masalalar muhokama qilindi.

O'z muxbirimiz



4-betda o'qing

## Hokim yordamchilari nimadan norozi?



5-betda o'qing

## Qachongacha shimni tizzagacha ko'tarib yuramiz?

Bugun yurtimizda nima ko'p, qurilish ko'p. Osmono'par binolar, ko'p qavatli uylar, bir-biridan haybatli hovli-joylar... qurilish bo'lgani yaxshi, ammo bu atrof-dagilarga ziyon yetkazmasligi kerak...



7-betda o'qing

## Ijtimoiy himoya faqat pul berish degani emas!

## 2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



**Ijtimoiy tarmoqlarda kishilarning tasviri aks etgan fotosurat, video materiallarga tez-tez ko'zimiz tushadi. Ko'pincha, bunday materiallar uning egasi tomonidan, ayrim hollarda esa boshqa shaxslar tomonidan tarmoqqa joylanadi. Ba'zida bunday tasvirlar o'zida shaxsiy va oilaviy sirlarni yoki kishining sha'ni va qadr-qimmatini yerga uruvchi boshqa ma'lumotlarni aks ettiradi.**

*Shu o'rinda savol tug'iladi – kishilarning roziligisiz ularni tasvirga olish, uni tarqatish mumkinmi? Buning uchun javobgarlik belgilanganmi?*

## TASVIRGA BO'LGAN HUQUQLAR daxlsiz-mi?

### TASVIRGA BO'LGAN HUQUQLAR QAY DARAJADA DAXLSIZ?

Fuqarolik kodeksiga ko'ra, shaxsning tasvirga bo'lgan huquqi tortib olinmaydi va o'zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ham kishining shaxsiy hayoti daxlsizligi bilan bog'liq qator normalar kiritildi. Shu jumladan, har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlar himoya qilinishi, noto'g'ri ma'lumotlar tuzatilishi, shuningdek, o'zi to'g'risida noqonuniy to'plangan ma'lumotlar yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Bir qarashda barchasi sodda va tushunarli. Ammo shunga qaramay, tasvirga bo'lgan huquqni himoya qilishda quyidagi bir qator bo'shliqlar hamon saqlanib qolmoqda.

**Birinchidan,** tasvirga bo'lgan huquq chegarasi, undan foydalanish tartibi belgilanmagan. Masalan, kishini tasvirga olish, uni tarqatish yoki tasvirdan foydalanish uchun undan rozilik olinishi kerakligiga oid qat'iy talab yo'q. Davlat xizmatchilarini tasvirga olishda qator maxsus qoidalar belgilangan. Masalan, yo'l harakati qatnashchilari YPX xodimi bilan o'zaro munosabatini o'ziga tegishli audio, foto va video qurilmaga qayd qilishi mumkin. Ammo tarmoqlarda aylangan videolar sababli Ichki ishlar vazirligi tomonidan xizmat vazifasini bajarayotgan xodimlarni videoga olgandan so'ng, uning ruxsatisiz ijtimoiy tarmoqqa joylashni taqiqlash va buning uchun ma'muriy javobgarlik belgilashga urinishlar bo'ldi.

**Ikkinchidan,** yuqoridagi ko'rsatilgan rozilik olinmaydigan holatlar doirasi aniqlashtirilmagan. Masalan, jinoyat sodir etgan yoki yo'qolgan kishini qidiruvga berishda, turli ommaviy va jamoat tadbirlarida olingan tasvirlarda, tergov faoliyatida foydalanishda tasvir egasidan rozilik olishni istisno qilish mumkin.

**Uchinchidan,** videokuzatuv tizimlarida tasvirga bo'lgan huquqni himoya qilish masalalari tartibga solinmagan. Masalan, jamoat joylarida kuzatuv kameralari o'rnatilgan

taqdirda bu haqda yozma ravishda e'lon qilinishi lozimligiga oid talab, kuzatuv kameralari o'rnatish mumkin bo'lmagan joylar (masalan, hojatxona, kiyinish xonalari) belgilanmagan.

Qonunchilikdagi ushbu noaniqliklar va qat'iy normalarning yo'qligi sababli qator salbiy holatlar kelib chiqmoqda. Masalan, turli pranklar, vaynlarda tasvirga tushirilgan kishilar aksar holatda o'zining tasvirga olinayotgani, uning ishtirokidagi videolar tarmoqqa joylanishi haqida xabari bo'lmaydi. Ulardan rozilik olinmaydi (qonunda videorolikdan foydalanish uchun rozilik olish talabi faqat intervyularga nisbatan o'rnatilgan).

Shuningdek, shaxslarning tasvirida ularning sha'ni va qimmatini yerga urishi mumkin bo'lgan turli ko'rinishlarda, masalan, memlar uchun shablon sifatida tasvir egasining roziligisiz foydalanish holatlari ijtimoiy tarmoqlarda oddiy holatga aylanib ulgurd.

Bundan tashqari, kishi shaxsiy hayotining o'ta nozik sahnalarini aks ettiruvchi rasm va videolar ijtimoiy tarmoqlar kontentini sezilarli darajadagi katta qismiga aylanib ulgurgan. Shuningdek, aksar holatlarda videokuzatuv tizimlari o'rnatilgani haqida ogohlantirish berilmaydi.

### QANDAY JAVOBGARLIK BOR?

Qonunchilikdagi yuqoridagi noaniqliklar va qat'iy normalarning yo'qligiga qaramay, shaxsning tasvirga bo'lgan huquqi ma'muriy javobgarlik va jinoyat qonunchilik bilan muhofaza qilingan. Shu jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksida shaxsiy hayot daxlsizligini buzish uchun alohida javobgarlik belgilangan. Xususan, ushbu kodekslarga ko'ra, shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig'ish yoki tarqatish fakti javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Ammo bu o'rinda tasvirga bo'lgan huquq muhofazasini cheklovchi qator holatlar bor. Masalan, yuqoridagi javobgarlik faqatgina shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarga nisbatan tatbiq etiladi. Bunday ma'lumotlarga misol sifatida kishining nojo'ya, xunuk odatlari, ishqiy aloqalari, intim hayotini keltirish mumkin. Qonunchilik shaxsiy va oilaviy sir doirasini belgilamaydi. Shu boisdan, har bir holatda ma'lumotning xususiyati bo'yicha yakuniy baho sud tomonidan beriladi.

Shuningdek, yuqoridagi moddalar tasvirni yashirincha olishga mo'ljallangan maxsus texnik vositalardan foydalanish holatlarini og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etmaydi. Masalan, maxsus ruchka yoki tugmaga o'rnatilgan yashirin kameralar orqali kishiga bildirmasdan uni tasvirga olish imkoniyati ancha yuqori. Bu esa, o'z navbatida, uning ijtimoiy xavfli darajasini yanada oshiradi.

Aytish lozimki, tasvirni qonuniy to'plash, tarqatish va undan foydalanish maqsad (subyektiv tomon) va ko'rinishlari (obyektiv tomon) keng bo'lganligi sababli ish holatiga qarab,

fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish, shaxsiga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish, mayda bezorilik yoki boshqa harakatlar uchun javobgarlik keltirib chiqarishi mumkin.

Har qanday holatda ham kishilar noqonuniy olingan o'z shaxsiga doir ma'lumotlar yo'q qilinishini talab qilishi, ma'lumotlarni tarqatish oqibatida yetkazilgan zarar va ma'naviy ziyonning o'rnini qoplashni talab qilishi mumkin.

### BOSHQA DAVLATLARDA QANDAY?

O'zbekistonda tasvirga bo'lgan huquqlar buzilishi bilan bog'liq holatlar so'nggi yillarda jiddiy tus olayotgan bo'lsa, boshqa davlatlar allaqachon bunday muammolarni boshidan o'tkazib, qonunchiligini shaxs daxlsizligini ta'minlashning zamonaviy talablariga moslashtirgan.

Shveysariya, Ispaniya, Fransiya, Braziliya, Birlashgan Arab Amirliklari va Xitoy qonunchiligida shaxsni tasvirga tushirishda uning roziligining talab etilishi alohida belgilangan. Shuningdek, Daniya, Fransiya ommaviy tadbirlarda va jamoat joylarida (ta'lim muassasalari, hayvonot bog'lari, sayilgohlar) olingan tasvirlarni, Braziliya, Kanada davlatlarida esa shaxsning foto yoki video tasvirlarini tarqatish davlat va jamoat manfaatlari uchun foydalanilganda uning roziligi talab etilmasligi nazarda tutilgan.

Masalan, Birlashgan Arab Amirliklarida fotograf yoki videopertor boshqa shaxslarning tasvirini tushirgan bo'lsa, ushbu tasvirni o'zida saqlashga, ko'rsatish va namoyish etishga, tarqatishga, nashr qilishga tasvir tushirilgan shaxsning roziligisiz haqli emas. Bunday harakatlar huquqbuzarlik hisoblanib, uni sodir etganlik uchun 6 oygacha qamoq va jarima jazosi belgilangan.


Shu boisdan ham ko'plab davlatlarda tasviridan foydalanish tartibi qat'iy lashtirilib, uni buzganlik uchun jazo kuchaytirilgan. Xususan, qator davlatlarda (masalan, AQSh, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Ruminiya va Polsha) tasvirni yashirincha olishga mo'ljallangan maxsus texnik vositalardan foydalanish holatlari og'irlashtiruvchi holat sifatida baholangan.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, tasvirga bo'lgan huquq shaxs daxlsizligining eng muhim elementlaridan biri. Kishilarning ushbu huquqini hurmat qilmaslik, uni poymol qilishi nafaqat etika me'yorlariga zid, balki jinoyat javobgarlikka tortilishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmish sanaladi. Demak, kishilarni tasvirga olish, uni tarqatish uchun har qanday holatda, hatto fotografiya maqsadlarida ham undan rozilik olinishi shart.

**Murodjon NAJMIDDINOV,**  
huquqshunos



Savollarga "Madad" NNT yetakchi mutaxassisi  
**Shaxzod MAJIDOV** javob berdi



## TOSHKENTDAN UY OLMOQCHI EDIM...



**– Qo'limda hunarim bor. Rasmiy daromadga ega bo'lmam ham topish-tutishim yaxshi. Toshkentdan uy olmoqchi edim. Rasmiy daromadga ega bo'lmagan shaxslar ham tijorat banklari orqali uy-joy uchun ipoteka kreditini olishga haqlimi?**

– 2023-yil 13-apreldagi "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoniga ko'ra, 2023-yil 1-maydan e'tiboran rasmiy daromadga ega bo'lmagan shaxslarga ipoteka kreditini ajratishda ularning to'lov qobiliyatini aniqlashning "Skoring" tizimi joriy etildi. Unga ko'ra, ipoteka kreditini olmoqchi bo'lgan talabgorning daromadi quyidagi usullar orqali aniqlanadi. Ipoteka kreditini olmoqchi bo'lgan shaxsning 1 oyda bank kartasidagi pul mablag'larining aylanmasi, 1 oyda kommunal to'lovlarga qilgan mablag'lar aylanmasi, ijara to'lovlari bo'yicha qilgan mablag'lar aylanmasi, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa pul mablag'lar aylanmasi hisobga olinadi. Buning uchun rasmiy ishlamaydigan shaxslar ipoteka kreditini olish uchun o'zlari istagan tijorat bankiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan murojaat qilishlari mumkin.

## KONTRAKT PULINI QAYTARIB OLSAM BO'LADIMI?



**– 2022-yilda texnikumga o'qishga kirgan edim. Lekin hozir o'z xohishimga ko'ra ushbu texnikumda o'qimoqchi emasman. Aytingchi, kontrakt to'lovi uchun to'lagan pul-larimni qaytarib olish huquqiga egamanmi?**

– Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Nizomning 60-bandiga ko'ra, o'rta yoki o'rta maxsus professional ta'lim dasturlarida ta'lim olayotgan o'quvchilar quyidagi sabablarga ko'ra o'quvchilar safidan chetlashtirilganda professional ta'lim muassasasi tomonidan uning o'qigan muddati uchun haqiqatda sarflangan xarajatlar chegirilgan holda tegishli o'quv yili yoki semestri uchun oldindan amalga oshirilgan to'lovning qolgan qismi kontraktning tegishli tarafi yozma murojaatiga ko'ra qaytarib beriladi:

- o'z xohishiga binoan;
- o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;
- salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);
- o'quvchi sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- vafot etganligi sababli.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, texnikum direktori nomiga to'langan to'lovni qaytarish bo'yicha ariza tartibida murojaat qilish huquqiga egasiz.


## JARIMA TO'LAYMANMI?



**– Haydovchilik guvohnomam 2012-yilgacha berilgan eski namunadagi haydovchilik guvohnomasi bo'lib, joriy yilning 1-iyulidan o'z kuchini yo'qotdi. Ishlarim bilan bo'lib yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasini olishga ulgurmadim. Endi men jarima to'laymanmi?**

– Joriy yilning 1-iyulidan boshlab 2012-yilgacha berilgan eski namunadagi haydovchilik guvohnomalari o'z kuchini yo'qotdi. Agarda siz 30-iyun kungacha 2012-yilgacha berilgan eski namunadagi haydovchilik guvohnomangizni almashtirishga ulgurmagani bo'lsangiz, unda sizga guvohnomani 1-iyul kundan keyin ham jarima to'lovlarisiz va imtihonlarsiz almashtirish imkoni beriladi. Biroq, Siz muddati o'tgan haydovchilik guvohnomasi bilan avtomobil boshqarsangiz, Sizga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiriladi.

## PASPORT NECHA KUNDA BERILISHI KERAK?



**– Xorijga chiqish uchun biometrik pasport olish uchun murojaat qilgan edim. Lekin murojaat qilganimga 1 oydan oshdi hamki, haligacha menga xorijga chiqish uchun biometrik pasport berilgani yo'q. Aslida qonunchiligimizga ko'ra xorijga chiqish uchun biometrik pasport necha kunda tayyorlab berilishi kerak?**

– 2018-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda O'zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizomga ko'ra, ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan xorijga chiqish biometrik pasporti xizmatidan foydalanuvchi murojaat

etib, tegishli to'lovlarni amalga oshirgan kundan boshlab, YaIDXP orqali murojaat qilingan hollarda esa, ma'lumotlarni yig'ish punktida xizmatdan foydalanuvchining biografik ma'lumotlarini, qo'l barmoqlarining elektron izlarini (16 yoshdan katta shaxslar uchun) to'plash, yuzni to'g'ridan raqamli formatda rasimga olish ishlari amalga oshirilgan paytdan boshlab, o'n ish kuni (16 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun qo'shimcha o'rganishlar talab etiladigan alohida hollarda – bir oy) ichida taqdim etiladi.

## AVTOTURARGOH QURISHGA RUXSAT BORMI?

**– Ko'p qavatli uyda yashayman. Qo'shnimiz ko'p qavatli uyning old qismini o'rab olib, shaxsiy avtomashinasini qo'yishga joy qurib oldi. Qonunchiligimizda bu haqda nima deyilgan? Aytingchi, qo'shnimda ko'p qavatli uyning oldini avtoturargoh qilib olish huquqi mavjudmi?**

– Ushbu qurilma noqonuniy qurilma hisoblanadi va siz noqonuniy qurilmani buzish bo'yicha da'vo arizasini kiritishingiz lozim. Fuqarolik kodeksining 212-moddasiga ko'ra, turar joy, boshqa qurilma, inshoot yoki boshqa ko'chmas mulk quyidagi tarzda qurilgan bo'lsa, o'zboshimchilik bilan qurilgan imorat hisoblanadi. Jumladan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu maqsadlar uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, bunga kerakli ruxsatnomalarni olmasdan yoki arxitektura hamda qurilish normalari va qoidalarini sezilarli darajada buzgan holda qurilgan imorat hisoblanadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 99-moddasiga ko'ra, obyektning ro'yxatdan o'tkazmasdan va ruxsatnomasiz qurilganlik, qurilish normalari va qoidalarini, ishlarni bajarish va topshirishda texnik shartlarni, obyektning ishga tushirish qoidalarini buzganlik ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

## 4 MUHOJATLAR ADLIYA NIGOHIDA

## NAMANGAN

Mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimi tubdan takomillashtirilmoqda. Adliya bo'limlariga kelib tushayotgan arizalarning joyida ko'rib chiqilishi esa aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini yanada oshirmoqda.

Nazoratchilarning  
MANFAATI

## sudda himoya qilindi



Xususan, Chust tumanida yashovchi fuqaro H. Hakimovning tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli 53 nafar qabriston nazoratchisining ish haqi 4-razryad bilan to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati ham adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida tuman

Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan qabriston nazoratchisi lavozim maoshi uchun 4-razryad ish haqi to'lanishi belgilangan bo'lsa-da, 3-razryad ish haqi to'lanayotgani hamda 4-razryad ish haqi to'lab berilmayotgani natijasida 2020-2022-yillar davomida H. Hakimov va xodimlarning ish haqidagi haqdorligi 197 million

736 ming 689 so'mni tashkil qilishi aniqlandi.

Adliya bo'limi tomonidan nazoratchilarga 3-razryad to'lanayotgan ish haqini qayta hisoblab, 4-razryad asosida ya'ni Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 1-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiqlashtirib ish haqi to'lash choralarini ko'rishni so'rab taqdimnoma kiritildi. Ammo tuman Obodonlashtirish boshqarmasi adliya bo'limining taqdimnomasiga bergan javobida ish haqlarini to'lay olmasligini ma'lum qilgan. Shu sababli ushbu holat sud muhokamasiga o'tkazilib, qabriston nazoratchilari manfaatida 197 million 736 ming 689 so'm ish haqini undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Chust tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi va murojaat ijobiy hal etildi.

**Azamot JO'RAYEV,**  
Chust tuman adliya bo'limi boshlig'i

## SIRDARYO

Sardoba tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro Z. Mustafuqulovning murojaati o'rganildi. Unda bayon etilishicha, u 2019-yilda nafaqaga chiqib, 2022-yildan boshlab II-guruh nogironi bo'lgan.

Murojaat e'tiborsiz  
qoldirilgan

Nogironlik guruhiga chiqqanidan so'ng nafaqasini qayta hisoblashlarini so'rab Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Sardoba tuman bo'limiga bir necha marotaba murojaat qilgan, biroq uning murojaati e'tiborsiz qoldirilgan.

Mazkur murojaat asosida tuman adliya bo'limi tomonidan Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Sardoba tuman bo'limida tegishli tartibda monitoring o'tkazildi. Monitoring davomida Z. Mustafuqulovga 2021-yil 23-aprelda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlangani, Mirzaobod tumanlararo TMEK tomonidan 2022-yil 25-oktabrda berilgan II-guruh nogironligi to'g'risidagi xulosa esa haqiqatan ham bugungi kunga qadar inobatga olinmagani aniqlandi.

"Pensiya to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga asosan fuqarolarga pensiyani tanlash huquqi berilgan. Unga ko'ra, "Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlarini tanlagan bitta pensiya tayinlanadi", deya belgilangan. Ushbu norma talabidan kelib chiqqan holda Z. Mustafuqulovga ikki turdagi pensiyadan birini tanlash vakolati berildi. Va murojaatchining xohishiga ko'ra, unga nogironlik pensiyasi tayinlandi.

**Shoxjahon TAMIRBAYEV,**  
Sardoba tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

## TOSHKENT

O'QITUVCHINING MUAMMOSI  
BARTARAF ETILDI

Yashnobod tumanidagi "Boku" ko'chasida yashovchi fuqaro N. Oripovning tumanidagi 170-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ma'muriyatining harakatlaridan norozi bo'lib yozgan shikoyati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

Aniqlanishicha, N. Oripova 170-sonli maktab direktorining buyrug'iga asosan 2021-yil 10-dekabrda asosiy ishga 3 oylik sinov muddati bilan o'zbek tili o'qituvchisi etib tayinlangan. Direktorning yana bir buyrug'iga ko'ra unga 2021-yilning 18-dekabrda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha 0,5 stavka qo'shimcha targ'ibotchi vazifasi ham yuklangan.

Lekin N. Oripovning asosiy ishi o'qituvchilik bo'lishiga qaramasdan uning mehnatiga soatbay pul to'lab kelingani ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda qaratilgan qarori bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida"gi Nizomning 12-bandiga asosan pedagog xodimlar mehnatiga soatbay haq to'lash:

- ✓ ketma-ket ikki oydan ortiq bo'lmagan davrda kasallik yoki boshqa sabablar bilan ishda bo'lmagan xodimlarning o'rnini bosish tartibida ishlab berilgan soatlar uchun haq to'lashda;
- ✓ boshqa muassasalardan jalb etiladigan o'qituvchilar va boshqa mutaxassislar, shu jumladan o'rindoshlik bo'yicha boshqa maktablardan jalb etiladigan o'qituvchilar va mutaxassislarining pedagogik ishi uchun haq to'lashda;
- ✓ o'rnini bosish tartibida umumta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan o'tilgan o'quv soatlari uchun haq to'lashda qo'llaniladi.

Shunga ko'ra, o'qituvchiga soatbay mehnat haqi to'lanishi natijasida qolib ketgan ish haqini qayta hisob-kitob qilgan holda to'lab berish, "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 16-bandi talablariga rioya qilish, qonun buzilishi holatiga yo'l qo'ygan aybdor shaxslarning intizomiy javobgarlik masalasini ko'rib chiqish yuzasidan ta'lim muassasasi rahbari nomiga taqdimnoma kiritilib, xodimga berilmay qolgan ish haqi to'lab berildi.

**Javohir JO'RAYEV,**  
Yashnobod tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi

## TOSHKENT

Toshkent shahar adliya boshqarmasi tomonidan fuqarolar J. Fatullayev va S. Yuldashevlarining qonunda belgilangan oylik ish haqi Yashnobod tuman hokimligi tomonidan to'lab berilmaganidan noroziligi hamda Toshkent shahar davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi tomonidan rasmiylashtirilgan ma'lumotnomani bekor qilish haqidagi arizasi ko'rib chiqildi.

HOKIM  
YORDAMCHILARI  
NIMADAN  
NOROZI?

Aniqlanishicha, S. Yuldashev va J. Fatullayevlar Toshkent shahar hokimining 2022-yil 11-yanvardagi farmoyishi va Yashnobod tuman hokimining 2022-yil 12-yanvardagi farmoyishiga asosan hokim yordamchisi lavozimiga tayinlangan.

Xususan, S. Yuldashevga Yashnobod tuman davlat soliq inspeksiyasida 2021-yil davrida ishlagan vaqti uchun 91 million 145 ming 843 so'm daromad hisoblangan. Shundan oxirgi 2 oy (2021-yil noyabr-dekabr) uchun 20 million 744 ming 76 so'm hisoblangan.

Yashnobod tuman hokimligining ma'lumotiga ko'ra, fuqaro S. Yuldashev 2022-yilda hokim yordamchisi sifatida ishlagan davri uchun 61 million 294 ming 686 so'm daromad qilgan. Uning hokim yordamchisi lavozimidagi daromadi avvalgi ish joyidagi daromadiga nisbatan kam bo'lib, yetmagan 20 million 873 ming 766 so'm qismi kompensatsiya qilib berilmagan.

Vaholanki, Prezidentning 2021-yil 3-dekabrda qaratilgan 9-bandida hokim yordamchilariga to'lanadigan o'rtacha oylik ish haqi miqdori nomzodning ushbu lavozimga ishga qabul qilingunga qadar avvalgi ish joyi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lgan taqdirda yetishmagan qismi hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan kompensatsiya qilib berilishi belgilangan.

Bunda o'rtacha oylik ish haqi miqdori Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi qarori bilan tasdiqlangan "O'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi"ga asosan hisoblab chiqiladi. Oylik ish haqi o'rtasidagi farqni kompensatsiya qilish mexanizmi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Yuqoridagilarga ko'ra, shahar adliya boshqarmasi tomonidan J. Fatullayev va S. Yuldashevlarining manfaatida javobgarlar - Yashnobod tuman hokimligi va davlat moliyaviy nazorat boshqarmasiga nisbatan da'vo ariza kiritildi va fuqarolik ishlari bo'yicha Miroybod tumanlararo sudining 2023-yil 20-iyundagi hal qiluv qaroriga asosan da'vo ariza qanoatlantirildi. J. Fatullayev foydasiga 18 million 223 ming 177 so'm va S. Yuldashevga 20 million 873 ming 766 so'm oylik ish haqini undirish belgilandi.

**Sherzod SHARIPOV,**  
Toshkent shahar adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



Bugun yurtimizda nima ko'p, qurilish ko'p. Osmono'par binolar, ko'p qavatli uylar, bir-biridan haybatli hovli-joylar... qurilish bo'lgani yaxshi, ammo bu atrofda qilargana ziyon yetkazmasligi kerak. Poytaxtimizning shundoqqina biqinida joylashgan, Qibray tumaniga qarashli "Olmazor" mahallasida "Zarafshon villas" qurilish kompaniyasi tomonidan uchastkalar qurilishi boshlanganiga ham ikki yildan oshdi.



O'zim ham shu mahallada yashayman. Gohida piyoda, gohida mashinada yuraman. O'sha joyga kelganda o'tishga qiynalaman. Piyoda bo'lsam, tuproq kechib o'tishga, mashinada bo'lsam, chang ko'tarilib, shundoq ham devor yoqalab ketayotgan yo'lovchilarni changda qoldirishga majburman.

Aslida tadbirkorda xohish bo'lganda, aholini norozi qilib emas, ularning duosini, olqishini olib ishini bajarsa bo'lardi. Ertalab bir mahal, kechqurun



Gap shundaki, qurilish qilayotgan tadbirkor o'zining foydasini o'ylab, o'zgalarga zarar yetkazayotganini unutib qo'ygan chog'i. Qurilish bo'layotgan maydon "Olmazor" mahallasiga qiruvchi "Yangi zamon" ko'chasining bosh qismida joylashgan. Bu ko'chadan maktab o'quvchilaridan tortib, ishga borib keluvchilarning ham ko'pchiligi katta yo'lgacha piyoda qatnaydi. Piyodalar aynan qurilish bo'layotgan hududdan o'tayotganda chang, tuproq bosib o'tmoqda. Agar o'sha yerdan harakatlanayotganingizda oldingizdan mashina o'tib qolsa bormi, changning ichida qolasiz. O'tgan, qaytgan borki, qurilish boshida turgan ishbilarmonning sha'niga "rahmat" aytib o'tmoqda.

## Qachongacha

### shimni tizzagacha

### ko'tarib yuramiz?

Bundan to'rt-besh yil avval "Yangi zamon" ko'chasi asfaltlari ko'chgan, o'ydim-chuydim, qadamni qayerga bosishni bilmaydigan, piyodalar yo'lakchasi yo'q, abgor ko'cha edi. O'sha hududda yashovchi fuqarolar goh tuman hokimligining eshigi oldida

sarg'ayib, goh yo'lsozlarning ketidan yurib, yo'lni asfalt qildirdi. Piyodalar yo'lakchasi qilindi. Mahalla ahli qilingan ishlardan xursand edi. Bugun esa "Zarafshon villas" mas'ullari aholning haqli noroziligini keltirib chiqarmoqda.

ya'na bir mahal maxsus texnikalar bilan ko'chaga suv sepdirib qo'ysa, olam guliston edi. Milliard-milliard pul sarflab qurilish qilayotgan tadbirkor uchun yuz, ikki yuz minglar nima bo'libdi?

Xullas, bu joydagi qurilish yaqin orada tugaydiganga o'xshamaydi. Shunday ekan "Zarafshon villas" mas'ullari ko'cha holatini o'nglashidan umid qilib qolamiz. Axir, qachongacha shimni tizzagacha ko'tarib yuramiz?!

Darvoqe, suratlariga qarab ko'cha chang emas-ku, nega ayyu-hannos solayapsan, degan xayolga bormang! Surat 6-iyulda kechasi yog'ib chiqqan yomg'irdan keyin olingan.

**Yorbek ISKANDAROV,**  
"Inson va qonun" muxbiri

#### FAOLIYAT

## XATO TAMG'A EMAS, xulosa chiqarish uchun sinov bo'lishi ham mumkin



Prezidentimizning 2018-yil 7-noyabrdagi "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida 2019-yil 1-yanvardan ichki ishlar organlari tizimida mutlaqo yangi - Probatsiya xizmati tashkil etilib, Probatsiya hisobiga olingan shaxslarni tarbiyalash, ijtimoiy hayotga moslashtirish, hayotda o'z yo'lini topishlarida har tomonlama amaliy ko'maklashish, ularni jazo o'tash davrida takroriy jinoyat sodir etishlarining oldini olish, bandligini ta'minlash va boshqa amaliy profilaktik ishlar olib borish belgilangan.

Shu nuqtayi nazardan olib gapirganda, 2023-yilning dastlabki 5 oyi davomida Toshkent viloyati IBB Jamoat xavfsizligi xizmati Probatsiya boshqarmasi va uning hududiy guruhlarini hisobiga 5 ming 177 nafar nazoratdagi shaxslar hisobga olindi. Jazoni o'tashda halol munosabatda bo'lgan, sodir etgan qilmishidan to'g'ri xulosa chiqargan hamda jazoni o'tash tartibi va shartlarini buzmagani, jazoni o'tashga to'sqinlik qiluvchi kasalliklarga chalingan, jazo o'tash davrida yashash manzillari o'zgargan, jazoni o'tash muddati tugagan va boshqa sabablari bo'lgan 5 ming 769 nafar shaxs esa hisobdan chiqarildi.

Hisobda turgan nazorat ostidagi shaxslarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida sud, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda 134 marotaba sayyor sud majlisi tashkil etildi. Qolaversa, nazoratdagi shaxslarning bandligini ta'minlash, ijtimoiy hayotga moslashtirish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish, bir martalik moddiy yordam ko'rsatish, jazo o'tash davrida takroriy jinoyat sodir etilishining oldini olish borasida tegishli tashkilot va idoralar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda mehnat yarmakalari o'tka-

zildi. Natijada 931 nafar nazorat ostidagi shaxslar ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan 2051 nafar shaxs tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ijtimoiy jihatdan moslashishlari uchun bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi.

Ta'kidlash joizki, probatsiya hisobida turgan nazoratdagi shaxslarning 1953 nafari yoki 18 foizini yoshlar tashkil etadi. Binobarin, yoshlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ijtimoiy hayotga moslashtirish borasida profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

E'tirof etish kerak, Yangi O'zbekistonda inson sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxtsiz huquqlari oliy qadriyat sanaladi. Insonning taqdir chiziqlari qanday bo'lishi bevosita oilada olgan tarbiyasi-yu, atrofidagi do'stlariga bog'liq. Yo'l qo'yadigan xatosi bir umrlik tamg'a emas, balki, to'g'ri xulosa chiqarishi uchun bir sinov bo'lishi ham mumkin. Shunday ekan, probatsiya hisobidagi shaxslarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash zimmamizga jiddiy mas'uliyat yuklaydi.

**Abbos ABDILHAMEDOV,**  
Toshkent viloyati IBB jamoat xavfsizligi xizmati Probatsiya boshqarmasi inspektori

## 6 BILASIZMI?

## MEHNAT HUQUQI

Menga necha  
kun mehnat  
ta'tili beriladi?

– Maktab-internatda direktor bo'lib ishlayman. Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan pedagoglar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili davomiyligi belgilanibdi. Shunda, navbatdagi mehnat ta'tiliga chiqsam, menga necha kun ta'til beriladi?

D. BOYMATOVA,  
Sirdaryo tumani



– Mehnat kodeksining 501-moddasida pedagog xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari sifatida pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta'tilining davomiyligi Vazirlar Mahkamasini tomonidan ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanishi nazarda tutilgan.

Shunga ko'ra, 2023-yil 26-iyunda hukumatning "Pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili davomiyligi me'yorlarini belgilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili davomiyligi me'yorlari tasdiqlangan. Mazkur me'yorga asosan boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktab-internatlar, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktabi va maktab-internatlar, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, Respublika o'quv-tarbiya muassasalarining direktor, ijrochi direktor, uning o'rinbosarlari (ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik mudiridan tashqari), direktor maslahatchisi, maktab maslahatchisi 56 kalendar kunlik yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili olishlari belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan, siz navbatdagi mehnat ta'tiliga 56 kalendar kunlik davomiylikka ta'til olishingiz mumkin.

Savolga "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi Charos YULDASHYEVA javob berdi

Qadimgi Rim huquqida majburiyatlarining vujudga kelishi uchun eng ko'p qo'llaniladigan asos – shartnoma bo'lgan. Shartnomalar asosan ikki tizimga: kontraktlar va paktlarga bo'lingan. Kontraktlar tizimiga alohida shartnomalar kiritilgan. Ular da'vo himoyasi bilan ta'minlangan. Paktlar tizimi esa kontraktlar tizimiga qarama-qarshi bo'lib, ularga turli xil mazmunlarni qamrab olgan norasmiy kelishuvlar, ahdomalar kiritilgan bo'lib, da'vo himoyasi bilan ta'minlanmagan.

Huquqshunos Gayning ta'riflashiga ko'ra, shartnomalar asosida vujudga keladigan majburiyatlar 4 qismga bo'lingan: res, verba, litterae va konsensus.

#### Kontraktlar tizimi asosan quyidagi guruhdagi shartnomalarga bo'lingan:

- konsensual shartnomalar,
- verbal shartnomalar,
- literal shartnomalar;
- real shartnomalar.

Ularni guruhlab olishimizning sababi, mazkur guruhlar ham shartnomalarning bir qancha turlarini o'z ichiga olgan.

### KONSENSUAL SHARTNOMALAR

Ijara shartnomasi konsensual shartnomalar guruhiga mansub shartnoma turlaridan biri hisoblanadi. Konsensus shartnomalari ikki tomonning o'zaro oddiygina kelishuvidan vujudga kelgan shartnoma bo'lib, konsensus shartnomasi deyilgan. Bu turdagi shartnomalarga oldi-sotdi, birgalikdagi faoliyat, pudrat, ishchi yollash yoxud ishchi ijaraga olish, mulk ijarasi kabi shartnoma turlari kirgan.




Qadimgi Rim huquqida shartnomalar institutini o'rgangan va unga yangi tushunchalarni kiritgan mashhur rimlik yuristlar (pretorlar haqida gap ketmoqda) sifatida Gay, Labeon, Modestin, Ulpian va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Qadimgi Rim huquqiy tizimida shartnomalar instituti birmuncha murakkab va o'z davriga xos bo'lgan tizimli tarzda tashkil etilgan. Qadimgi Rim huquqiy tizimida mulk huquqiga ega bo'lishning eng asosiy va ko'p qo'llaniladigan hamda oddiy usulda amalga oshiriladigan turi, ya'ni mulk huquqining shartnomalar asosida paydo bo'lishiga katta e'tibor qaratilgan.



## Qadimda ijara shartnomasi QANDAY TUZILGAN?



Qadimgi Rim xususiy huquqida ijara shartnomasi tushunchasi ko'pincha muayyan turdagi ko'char yoki ko'chmas mulk ijarasi shartnomasini nazarda tutgan. Bunday turdagi shartnomalar ashyoviy shartnomalar deb ham atalgan. Ijara bilan bog'liq shartnomalar esa asosan 3 qismga bo'lingan:

- lokasio-konduksio rerum, ya'ni ashyoviy shartnomalar;
- lokasio-operarum, ya'ni xizmat ko'rsatish shartnomalari;
- pudrat shartnomalari.

Asosiy ijara shartnomalari lokasio-konduksio rerum bilan bog'liq bo'lgan. U davrda ijara shartnomasi bilan bog'liq muddatlar masalasi o'ziga xos qoidalarga mavjud edi. Odatda, shartnomada ijara muddati ko'rsatib o'tilgan, bu shartnoma muayyan muddatli bo'lgan, ayrim hollarda ijara shartnomasi noma'lum muddatga ham tuzilishi mumkin bo'lgan. Bunday holatlarda istalgan vaqtda tomonlarning iltimosiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin edi. Shuningdek, "prekor" usuli ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, ijara shartnomasi muayyan muddatga, misol uchun bir yilga tuziladigan bo'lsa, agar belgilangan muddat o'tgandan so'ng ijaraga beruvchi indamasa, bu shartnoma o'z-o'zidan yana bir yilga cho'zilavergan.

### "USUS" NIMA?

Qadimgi Rim huquqida "usus" tushunchasi mavjud edi. U ijarachiga ijara haqini to'lamasdan biroving mulkidan foydalanish imkonini bergan. "Usus" ko'pincha ijarachi ma'lum bir yer yoki binodan ma'lum bir maqsadda, masalan, tog'-kon yoki dehqonchilik uchun foydalanishi kerak bo'lgan hollarda qo'llanilgan. Ijarachi mulkdan ma'lum muddat foydalanishi mumkin edi. Lekin ijara haqini to'lashlari shart emas edi. Odatda, ijara muddati tugagach, yer egasiga qaytarilgan.

Dastlab, milodiy 480-yilda Imperator Zenon uzoq muddatli ijara va merosxo'rlik ijarasini aralashtirish natijasida shakllangan emfitevtik shartnoma yaratilishini e'lon qilgan edi. Emfitevtik shartnomasiga ko'ra ijarachi "emfitevta", ijaraga beruvchi esa "dominus" deb atalgan.

Qadimgi Rim huquqida shartnomalarning boshqa turlariga nisbatan aynan ijara shartnomasi muhim ahamiyatga ega edi. Chunki bunday shartnomalar jismoniy shaxslarga, xususan, kambag'al dehqonlarga mulkni to'liq sotib olmasdan foydalanish imkonini bergan. Shuningdek, mulk egasining ham o'z mulklaridan daromad olishida juda qo'l kelgan.

Boshqa qadimgi davlatlar huquq tizimida ijara shartnomalari Qadimgi Rim huquqidagidek ko'p tushunchali va tizimli bo'lmagan. Hozirgi kunda ham ko'plab davlatlar huquq tizimida Qadimgi Rim huquqi tamoyillari o'z o'rnini topgan. Qadimgi Rim huquqi hozirgi kundagi jahon mam-lakatlarining huquq tizimi poydevi bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

S. MAMADJONOV,  
Adliya vazirligi mas'ul xodimi  
J. QURBANOV,  
TDYU o'qituvchisi

Adliya vazirligi tomonidan "Inson qadri uchun" tamoyili asosida joriy yilning iyun oyida "Inson huquqlari – oliy qadriyat" huquqiy aksiyasi o'tkazildi. Shu maqsadda mahallalarda tuman adliya bo'limlari tomonidan davlat organlari bilan hamkorlikda aholi bilan uchrashuv va ommaviy sayyor qabullar tashkil etildi.

## SAYYOR QABUL ORQALI FUQAROLARNING KO'PLAB MUAMMOLARI IJOBIY HAL ETILDI

Qonunchiligimizda aholi murojaatlari bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lishiga qaramay, ba'zi fuqarolar o'z huquqlarini yaxshi bilmaydi. Kimga, qayerga murojaat qilishni bilmay, o'z dardu tashvishi bilan qiynalib yuradi. Tuman adliya bo'limiga kelgan murojaatlarni o'rganish jarayonida ko'pgina holatlarda fuqarolarimiz mahalliy davlat hokimiyati, quyi organlar yoki mahallaning o'zida hal bo'ladigan masalalar yuzasidan to'g'ridan-to'g'ri Prezident virtual qabulxonasi yoki yuqori davlat organlariga murojaat qilgani ma'lum bo'lmoqda.

Bunday holatlarning oldini olish maqsadida Adliya vazirligi tomonidan belgilangan "Mahalla huquqshunos" loyihasini amalga oshirish bo'yicha reja-dastur asosida tuman hokimligi vakillari, xotin-qizlar faollari va profilaktika inspektorlari hamkorligida sayyor tadbirlar uyushtirildi. Bu tadbirlarda huquqiy maslahat va himoyaga muhtoj fuqarolar qatnashdi. Ularni qiziqtirgan savollari bo'yicha javoblar berish, qonunchilikdagi yangiliklar, murojaat qilish tartibi kabi masalalar batafsil tushuntirildi.

Keksa yoshdagi, kam ta'minlangan, mehnatga layoqatsiz va nogironligi bo'lgan shaxslar orasida moddiy ta'minot bilan bir qatorda huquqiy yordam va himoyaga muhtojlari ham yo'q emas. Aholi murojaatlarini o'rganish davomida kommunal yoki boshqa muammolar sabab kelayotgan murojaatlar ham ko'pligi ma'lum bo'ldi.

Murojaatlar adliya bo'limi xodimlari tomonidan o'rganilib, aholini qiynayotgan muammolar tezkorlikda hal qilinmoqda. Jumladan, Mirotob tumani Banokatiy ko'chasida joylashgan umumiy yotoqxonada yashovchi fuqaro J. Seitova II guruh nogironligini rasmiylashtirish uchun ancha vaqt sarson bo'lganini bildirib,

tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan. Mazkur murojaat xulosa olish uchun Toshkent shahar tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga yuborildi.

Shuningdek, mazkur yotoqxonada yashaydigan bir guruh fuqarolar ikkinchi qavatga ichimlik suvi chiqmasligidan noroziliklarini bildirishgan. Ular hokimiyatga bir necha bor murojaat qilishsa-da, hech qanday natija bo'lmagan. Masalaga adliya bo'limi tomonidan qonun doirasida alohida e'tibor qaratildi.

"Tashisti" MFY 2-berk Tuzel ko'chasida yashovchi fuqaro I. Risbekovning 0,1139 kv.mni tashkil qilgan uy-joy yer maydoni Toshkent viloyati hokimining 2018-yil 2-fevraldagi 128-sonli qarori va Qibray tuman hokimligining 2018-yil 2-fevraldagi 473-sonli qaroriga asosan davlat va jamoat ehtiyojlari uchun zarur bo'lganligi sababli olib qo'yilgan. Oradan salkam 5 yil o'tsa ham, fuqaro kompensatsiya to'lovlarini olmay, sarson bo'lgan. Mazkur masala yuzasidan fuqaro I. Risbekovning manfaatida Mirotob tuman adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Mirotob tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Ariza qanoatlanirilib, javobgar Qibray tuman hokimligidan I. Risbekov foydasiga 144 million 625 ming so'm miqdorida kompensatsiya puli undirildi.

Bundan tashqari, fuqaro S. Kusherbayevning manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Mirotob tumanlararo sudiga kiritilgan da'vo arizasi ham qanoatlanirildi. Murojaatchining foydasiga jami 509 million 671 ming so'm pul mablag'ini undirish yuzasidan sudning hal qiluv qarori chiqarilib, Qibray tuman hokimligi zimmasiga majburiyat yuklatildi.

**Abror BERDIYEV,**  
Mirotob tuman adliya bo'limi bosh yuriskonsulti

"Inson-jamiyat-davlat" g'oyasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning asosiy tamoyili etib belgilangan. Bugun O'zbekiston dunyo nigohida. Jumladan, Hindistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Manish Prabxat O'zbekistonda olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarga o'z fikrini bildirarkan, "Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekistonning oddiy fuqarolari ham bundan buyon davlat e'tiborida bo'lishi, huquqlari, farovonligi va qadr-qimmatini davlat tomonidan kafolatlanishini belgilaydi. Bunda albatta davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning xizmatlari katta, u Yangi O'zbekiston, birinchi navbatda, o'z xalqining huquqlari va qadr-qimmatini haqida qayg'uradigan, ijtimoiy davlat konsepsiyasini yaratadi..." deya ta'kidlaydi.

## Ijtimoiy himoya faqat pul berish degani emas!



O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb konstitutsiyada belgilanishi aynan davlatning ijtimoiy majburiyatlarining oshishiga xizmat qiladi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning davlat qaramog'ida ekanini mustahkamlaydi. Xususan, Konstitutsiyada belgilangan adolat va birdamlik prinsiplariga rioya qilgan holda, Konstitutsiyada belgilangan normalarni samarali amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz joriy yilning 8-may kuni "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

Shuningdek, ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda Konstitutsiyada mustah-

kamlangan normalarni amalga oshirish maqsadida Prezident 2023-yil 1-iyunda yana bir farmonni imzoladi. "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon bilan Prezident huzurida ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

Ushbu agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanib, u o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi. Agentlik iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Sog'liqni saqlash, Maktabgacha va maktab ta'limi, Moliya, Ichki ishlar va Oliy ta'lim vazirliklariga yuklangan ijtimoiy himoya vazifalarini o'ziga birlashtiradi.

Agentlikning ustuvor yo'nalishlari deb quyidagilar belgilangan:

- aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida davlat siyosati va chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish;
- voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish;
- ayollarni himoya qilish tizimini takomillashtirish;
- og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlash;
- yoshlar bilan ishlash;
- yakka-yolg'iz va keksalar bilan ishlash;
- ijtimoiy ta'minot dasturlarini ishlab chiqish.

Agentlik zimmasiga yuklatilgan vazifalar hamda faoliyatiga oid ustuvor yo'nalishlar jamiyatimizda mavjud muhim ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Ijtimoiy himoya faqat pul berish bilan cheklanib qolmoqda. Aslida, bu tizimning vazifasi aholini og'ir ahvoldan chiqarish va jamiyatda o'z o'rnini egallashi uchun ko'mak berishdan iborat bo'lishi kerak."

Qolaversa, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), BMT Bolalar jamg'armasi (UNICEF) va Jahon banki O'zbekiston Prezidenti huzurida Milliy ijtimoiy himoya agentligi tashkil etilganini yuqori baholadi.

**Shirin XO'JAYEVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

## E'LONLAR

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 27-iyundagi 118-um-sonli buyrug'i bilan, quyidagi advokatlarining advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyalarning amal qilishi hamda advokatlik maqomi to'xtatildi.

Jizzax tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 24-maydagi 5-1301-2301/259-sonli hal qiluv qaroriga asosan "Fanina himoyasi" advokatlar hay'ati advokati Isomov Akram Axmatjonovichga 2022-yil 5-mayda berilgan GZ 000160-sonli litsenziyaning amal qilishi va

advokatlik maqomi 2023-yil 24-iyundan 1 (bir) oy muddatga to'xtatildi.

Jizzax tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 24-maydagi 5-1301-2303/251-sonli hal qiluv qaroriga asosan "Sevinch" advokatlar hay'ati advokati Sayfiyev Umedjon Salimjonovichga 2023-yil 4-fevralda berilgan L №061875-sonli litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi 2023-yil 24-iyundan 1 (bir) oy muddatga to'xtatildi.

Jizzax tumanlararo ma'muriy sudining 2023-

2023-yil 29-maydagi 5-1301-2302/258-sonli hal qiluv qaroriga asosan "Fanina himoyasi" advokatlar hay'ati advokati Mustofoqulov Baxtiyor Erkinovichga 2020-yil 13-martda berilgan GZ 000124-sonli litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi 2023-yil 29-iyundan 1 (bir) oy muddatga to'xtatildi.

Advokatlar palatasi Jizzax viloyat hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 6-son majlis qaroriga asosan "Kafolat" advokatlar hay'ati advokati Sh. Murodovning advokatlik maqomi advokatlik tuzilmasi tashkil

etguniga qadar yoxud mavjud advokatlik tuzilmalaridan biriga ishga kirguniga qadar 2023-yil 31-maydan 3 (uch) oydan oshmaydigan muddatga to'xtatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 23-iyundagi 147-um-son buyrug'i bilan boshqarma tomonidan 2018-yil 17-dekabrda berilgan AN №000022-sonli litsenziya egasi, "DONO-ADVOKAT" advokatlik byurosi advokati Shakirova Feruza Urunbayevaning advokatlik maqomi va advokatlik guvohnomasining amal qilishi 2023-yil 23-iyun kundan tugatildi.

## 8 ADABIY AYVON



Tabaristonda bir kuzot shaxs bor edi. Bu shaxsni Abul-Abbos Ruyoiy qozi- ul kuzot deb atar erdilar. Bu odam ni-hoyatda olim, mastur, peshbin va sohibi tadbir erdi. Bir kun bir kishi uning oldiga: "Mendin yuz tillo oldi" deb boshqa bir kishining ustidan da'vo qilib keldi. Qozi uning raqibidan so'radi, u inkor qildi. Qozi ul inkor etg'on odamga: "Ont ichirmusan?" – deb so'radi. U kishi: "Ichaman", – deb javob berdi. Qozi da'vo etg'on kishig'a: "Guvohing bormu?" – deb so'radi. U odam: "Yo'q", – deb javob berdi. Qozi: "Guvohing bo'lmasa, unga ont berurman!" – dedi. Ul chog'da muddaiy zor-zor yig'lab dedi: "Ey qozi, unga ont bermag'il, ul yolg'on ont ichmoqdin aslo qo'rqmag'usidir va ont icharg'a bag'oyat dalildir".



## HIKOYAT

Qozi dedi:

– Men shariatdin chiqqa ol-mag'umdur. Yo sen guvoh topg'il, yo u ont ichsin.

Muddaiy qozining oldida o'zin tuproqqa tashlab, zor-zor yig'lab dedi:

– Ey qozi, mening guvohim yo'qdur. U, albatta, ont ichar va men mazlum bo'lib qolurman. Zinhor bir tadbir qilg'il, yo'q ersa, meni mazlum va mag'mum qilursan.

Qozi uning zorlang'onin ko'rib bil-dikim, uning so'zi rostdur. Unga dedi: "Ey xo'ja, na vohj bila u kishiga yuz tillo qarz bermish erding'?"

Mazlum dedi: "Bu kishi necha yildin beri men bila do'st erdi. Ittifoqo, bir kanizakka oshiq bo'ldi. Kanizak-ning bahosi yuz ellik tillo erdi va bu kishining ellik tillodan ziyod naqdga qudrati yetmas erdi. Hech iloj top-may, oqshom-kunduz devonalardek har tarafga yurar, yig'lar, faryod chekar erdi.

Bir kun ikkovimiz tomosha uchun sahro sayriga chiqdik va ikkovimiz tanho bir dasht ichinda har tarafg'a

yugurdik. U kishi menga kanizak haqida aytib, zor-zor yig'lab dedi: "Men senga yigirma yildan beri do'st erdim. Endi mening holimga tarah-hum ko'rgizg'il". Noiloj, uning holiga ko'nglum kuyib dedim: "Ey do'st, senda kanizakning bahosiga yetgulik aqchang yo'qdur. Bu ishda faryo-dingga yetib, madad bergudek hech bir kishig bormu?".

U kishi dedi: "Yo'q, agar mening faryodimga sen yetmasang, ho-lim mushkuldur!". Men dedim: "Bori mening yuz tillom bordurkim, uni necha yildin beri ko'p mehnatlar bila jam' etdim. Ushbu yuz tilloni senga berurman. Sen buni o'zing-ning ellik tillongning ustig'a qo'shib, ul kanizakni olg'il va bir oy muddat uning bila turg'il, bir oydin so'ng sotib, mening zarimni berg'il".

Bu kishi mendin bu so'zni tingla-gandan so'ng o'zin tuproqqa tashlab ont ichdiki: "Bir oydin ziyod saqla-masman. Bir oydin so'ng xoh ziyon bo'lsin, xoh sud bo'lsin, sotib, sening tillongni berurman". Shundin so'ng men ham ul yuz tilloni belimdan ye-

chib olib, unga berdim. Ul joyda men va uning o'zidan boshqa kishi yo'q erdi. Mana, to'rt oy bo'libdur, kanizak-ni ham sotmaydur, mening tillomni ham bermaydur".

Qozi dedi: "Sen tilloni unga berg'on vaqtda qaysi yerda o'turmish er-ding?". Ul dedi: "Falon daraxtning os-tida o'turib erduk". Qozi dedi: "Unda nechun guvohim yo'q dersan?". Ul xasmg'a dedi: "Sen bu yerda o'turg'il!" va muddaiyg'a dedi: "Sen tezroq daraxtning ostiga borib, ...da-raxtga aytg'ilki: "Qozi seni mening oldimga kelib guvohlik bersun, der". Xasm bu so'zni eshitib pinhoni ta-bassum qildi. Muddaiy dedi: "Ey qozi, daraxt mening so'zim bila kelmasa, na ish qilay?". Qozi dedi: "Mening muhrimni olib borg'il va daraxtga aytg'ilki, bu qozining muhridir, qozi seni aytib yubordi, borar emushsan va bu bobda ko'rg'on ishingga gu-vohlik berar emushsan, degil".

Muddaiy qozining muhrini olib, daraxt tomonga ravona bo'ldi va xasm qozining qoshida o'turdi. Qozi boshqa hukmga mashg'ul bo'ldi va xasmga aslo qaramadi. Ko'p vaqt-din so'ng o'zga hukmlarning orasida bir marotaba xasmga qarab dedi: "Falon muddaiy daraxtning yoniga yetishg'onmukan?". Ul dedi: "Yo'q!". Qozi yana o'zga ishlarga mashg'ul bo'ldi.

Muddaiy daraxtning ostiga borib, muhrni ko'rguzub: "Ey daraxt, seni qozi chaqiradur", – dedi. Bir qancha zamon o'turib turdi. Ammo da-raxtdan hech javob eshitmadi va g'amgin qaytdi. Qozining oldiga kelib dedi: "Ey qozi, daraxtga muhringni ko'rguzdim, lekin kelmadi". Qozi dedi: "Sen bilmading, daraxt kelib guvohlik berdi". Undan so'ng qozi xasmga qarab dedi: "Agar zaring bor bo'lsa, bu kishining haqini ber, yo'q ersa, kanizakni sotib bergil". Ul kishi dedi: "Ey qozi, bu yerda o'tururman, hech daraxt kelib guvohlik bermadi-ku!" Qozi dedi: "Agar sen bu odamdin zarni olmag'on bo'lsang, nima uchun "Muddaiy ul daraxtning ostiga yet-dimu erkan yo'q", deya sendin so'rag'onimda, sen "yo'q" deding va ul vaqtda nechun: "Qaysi daraxtdur va ul muddaiy qaysi yerga ketibdur, men uni hargiz bilmaman", dema-ding". Qozi xasmini mulzam qilib, undin tillolarni muddaiyga olib berdi.

Ey farzand, bilg'ilki, barcha hukmni kitob bo'yicha qilmaslar, o'z fikrlari bilan ham hukm qilurlar va bundoq tadbirlar bilan ham ishni bilib olurlar...


"Sudya ma'naviyati, odobi va mas'uliyati" kitobidan

"SHAXS SIFATIDA  
KIMMIZ?"

o'qing va bilib oling!

Inson qanchalik kam bilimga ega bo'lsa fakt va voqealarga shu qadar kuchli va shiddatli munosabat bildiradi. Televideniye orqali sportchilar, "KBH" jamoalari, qo'shiq va musiqa bo'yicha tanlovlar g'oliblarini taqdirlash marosimlarini namoyish etishadi – barcha sakragan, baqirgan, chinqirgan alfozda.

Faqat "Что? Где? Когда?" yoki shaxmat musobaqasi ishtirokchilari o'z g'alabalarini nidolar, xitoblar va buralib, eshilib g'amza qilmasdan nishonlashadi. Bu degani aqlli odamni hech narsa hayratga solmaydi, xafa qilmaydi yoki xursand etmaydi degani emas, aksincha, talvasa va hushidan ketar darajada o'zini qo'yarga joy topa olmay g'oliblikni nishonlash – masxarabozlar qismatidir. Vazminlik – yuqori intellektning eng yorqin belgilaridan biridir.



Zigmund FREYD

ta'бири bilan aytganda:

"Sizning jahlingizni chiqarishi mumkin bo'lgan muammoning katta-kichikligi sizning shaxs sifatidagi ko'lamingizga teng".

Shaxsiyati juda kichik va mayda bo'lgan odamning ichida doimo po'rtana hukm suradi, ulkan shaxslar qalbida esa mudom sokinlik hukmron.

Rus tilidan Jaloliddin SAFOYEV tarjimasini

INSON  
va qonun

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot  
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0081-raqam bilan  
ro'yxatga olingan

ISSN 2010-7697



## TAHRIR HAY'ATI

Bosh  
muharrir

Asliddin  
ALIMARDON

Alisher Karimov  
Furqat Tojiyev  
Xayotjon Klichev  
Sevara O'rinboyeva  
Yorbek Iskandarov  
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqrib  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

Navbatchi  
Gulbahor Ortixojayeva  
Sahifalovchi-dizayner  
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, offset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonada manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy  
Tiraj – 3570  
Buyurtma – 1980  
Toshirish vaqti – 19:00  
Toshirilishi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18  
Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5